

**JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH CHOG'IDA OLINGAN
DALILLARNING MAQBULLIGI**

Qulmurorov Urol Baxriddin o`g`li

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy-odil sudlov
fakulteti 4-kurs talabasi Toshkent, O`zbekiston Respublikasi

Telefon raqam: +998934241350

Annotatsiya:

Mazkur maqolada jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash choralari qo'llanilgan sharoitda olingan dalillarning maqbulligi masalasi tahlil qilinadi. Xususan, dalillarni to'plash jarayonida maxfiylik, protses ishtirokchilarining xavfsizlik kafolatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, xalqaro tajriba va milliy qonunchilikdagi muvofiqlik masalalari solishtirma tahlil qilinadi hamda amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi; ishtirokchilar xavfsizligi; dalillar maqbulligi; huquqiy kafolatlar.

**ADMISSIBILITY OF EVIDENCE OBTAINED WHILE ENSURING THE SAFETY OF PARTICIPANTS IN
CRIMINAL PROCEEDINGS**

Kulmurodov Urol Baxriddin o'gli

4th-year student, Faculty of Criminal Justice

Tashkent State University of Law Tashkent, Republic of Uzbekistan

Phone number: +998934241350

Annotation:

This article analyzes the issue of the admissibility of evidence obtained under conditions where measures to ensure the safety of participants in criminal proceedings are applied. In particular, attention is paid to confidentiality during the process of collecting evidence and to guarantees for the protection of procedural participants. The article also provides a comparative analysis of international practice and national legislation, identifies existing inconsistencies, and puts forward practical recommendations.

Keywords: Criminal proceedings, safety of participants, admissibility of evidence, legal guarantees.

**ДОПУСТИМОСТЬ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ, ПОЛУЧЕННЫХ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ
УЧАСТНИКОВ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА**

Кулмуродов Урол Бахриддин угли

студент 4 курса факультета уголовного правосудия

Ташкентского государственного юридического университета

Ташкент, Республика Узбекистан

Номер телефона: +998934241350

Аннотация:

В данной статье анализируется проблема допустимости доказательств, полученных в условиях применения мер по обеспечению безопасности участников уголовного процесса. Особое внимание уделяется вопросам конфиденциальности при сборе доказательств, а также гарантиям защиты участников процесса. Кроме того, проводится сравнительно-правовой анализ международного опыта и национального законодательства, выявляются проблемные аспекты и предлагаются практические рекомендации.

Ключевые слова: уголовный процесс; безопасность участников; допустимость доказательств; правовые гарантии.

Ma'lumki, dalillar jinoyat protsessining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki har qanday jinoyat ishining natijasi — aybdor shaxsning javobgarlikka tortilishi yoki oqlanishi — aynan dalillarning ishonchliligi va maqbulligiga bog'liq. Dalil maqbulligi shunchaki shakliy talab emas, balki adolatli sudlov tamoyilining amalida ta'minlanishini belgilovchi asosiy omildir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining VII bobi "Dalillar" bo'yicha normalarni o'z ichiga olgan bo'lib, unda dalillarning turlari, manbalari va ularni to'plash, tekshirish hamda baholash tartibi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" 24-son qarori ham jinoyat protsessida dalillarning maqbul yoki maqbul emasligi bo'yicha qoidalarga tushuntirishlar beradi. Ammo dalillarni to'plashda jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash va ularga berilgan xavfsizlik kafolatlarini amalga oshirish, shuningdek ushbu jarayonda ulardan olingan dalillarning maqbulligi masalasi hozirgi davrda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xo'sh, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash nima? Bu tushuncha haqida V.Ya.Shapakidze "Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi, birinchi navbatda, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni o'z ichiga oladi chunki ular xavfsizlik obyekti hisoblanadi" deb tushuntirish beradi. Jinoyat protsessi ishtirokchilari - bu jinoyat ishining yuritilishida bevosita qatnashuvchi, o'z protsessual huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan shaxslar majmuidir. Ular jinoyat ishining turli bosqichlarida qatnashib, ishning to'g'ri, qonuniy va adolatli hal etilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslar hisoblanadi.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash choralari qo'llanilgan holatlarda dalillarni to'plash va ularning maqbulligini ta'minlash o'ziga xos murakkabliklarga ega. Chunki bunday holatlarda tergov yoki sud organlari shaxsning himoya ostida ekanini inobatga olib, ayrim protsessual harakatlarni maxfiy ravishda yoki cheklangan shaklda amalga oshirishi mumkin. Bu esa dalilni olish, uni rasmiylashtirish va keyinchalik sudda ishonchli dalil sifatida qabul qilishda muayyan huquqiy savollarni yuzaga keltiradi. Dalil maqbulligining asosiy mezonini bu albatta uning qonuniy yo'l bilan protsessual qoidalarga amal qilgan holda olingan bo'lishidir. Jinoyat protsessi davomida protses ishtirokchisidan olinadigan ko'rsatmalar va boshqa dalillar mazkur ishtirokchilarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlashning samarali mexanizmi yaratilgandagina, bunday dalillarning maqbulligi ishning natijasi qonuniy va adolatli hal etilishiga yo'l ochadi. Amaliyotda dalillar maqbulligi va ishtirokchilar xavfsizligini ta'minlash o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlash eng murakkab masalalardan biridir. Masalan, aksariyat hollarda guvoh shaxsini sir saqlash zarurati sababli himoya organlari ularni videokonferensiya orqali so'roq qiladi. Biroq, bunday hollarda himoya tomoni dalilni

tekshirish, guvohga savollar berish imkoniyatidan to'liq foydalana olmasligi mumkin. Bu esa sud dalilining maqbulligi masalasida tortishuvlarga sabab bo'ladi. Guvohning xavfsizligini ta'minlash orqali dalilning maqbul ekanligi to'g'risida har qaysi taraflar uchun shubha tug'dirmasligi kerak. Shu bois, har qanday himoya chorasi dalilni tekshirish imkoniyatini mutlaqo yo'qqa chiqarmasligi kerak.

Xorijiy davlatlarda jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash bilan birga, dalillarning maqbulligini saqlab qolishga ham muhim ahamiyat qaratishadi. Aksariyat anglo-sakson huquq tizimi oilasiga kiruvchi davlatlarda "Anonim guvoh" atamasi ularning huquq tizimida mavjud. Guvoh yoki jabrlanuvchining himoyasi maqsadida so'roq maxfiy yoki masofadan turib o'tkazilgan taqdirda ham, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi va qonuniyligi kafolatlanishi lozim. Shu bois, ko'plab mamlakatlarda bu ikki yo'nalish — xavfsizlik va dalil maqbulligi — bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida shakllangan. Xususan, Moldova Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 110-moddasida guvohning xavfsizligi bir qator maxsus protsessual choralar orqali ta'minlangan. Xususan, agar guvoh yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan hayot, sog'liq yoki erkinlikka tahdid mavjud bo'lsa, sud guvohni masofadan turib, videokonferensiya shaklida so'roq qilishga ruxsat beradi. Bu jarayonda guvohning shaxsi oshkor etilmaydi, zarurat bo'lsa, u o'zining haqiqiy bo'lmagan shaxsiy ma'lumotlarini ishlatishi mumkin. Guvohning asl shaxsiga oid ma'lumotlar tergov sudyasi tomonidan alohida, maxfiy tarzda qayd etilib, muhrlangan konvertida saqlanadi. Shuningdek, guvohning tasviri va ovozi o'zgartirish orqali uni tanib bo'lmas holatda so'roq qilish imkoniyati ham nazarda tutilgan. Shu bilan birga, bunday tartibda olingan ko'rsatmalar faqat boshqa dalillar bilan tasdiqlangandagina ishonchli dalil sifatida qabul qilinadi. Bu yondashuv bir tomondan guvohning xavfsizligini kafolatlaydi, ikkinchi tomondan esa sudlov jarayonida dalillarning ishonchliligini saqlab qolish imkonini beradi. Bu holatda guvohning xavfsizligini ta'minlash maqsadida uning shaxsi oshkor etilmasligi albatta, muhim himoya chorasidir, biroq bu dalilning maqbulligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Chunki anonim tarzda so'roq qilingan guvohning haqiqatan ham mavjudligi, uning ko'rsatmalari ishonchliligini to'liq tekshirib bo'lmaydi. Sud jarayonida "Guvoh ko'rsatma berdi" deb qayd etilsa-da, u shaxsning real mavjudligi, holatni o'z ko'zi bilan ko'rganiga yoki ma'lumotni qayerdan olganiga oid shubhalar paydo bo'lishi mumkin. Shaxsga doir ma'lumotlar maxfiy saqlangani sababli, qarama-qarshi tomoni guvohning ishonchliligi yoki xolisligini tekshirib ko'rish imkonidan mahrum bo'ladi. Shuning uchun, bunday holatlarda guvoh ko'rsatmalari alohida, mustaqil dalil sifatida emas, balki boshqa ishonchli dalillar bilan tasdiqlangandagina e'tiborga olinishi kerak. Shuningdek, mazkur davlat Jinoyat-protsessual kodeksining 94-moddasi 2-bandiga binoan guvohdan himoya huquqi ta'minlanmasdan olingan ko'rsatmalari ham nomaqbul dalil hisoblanishi belgilangan, demak, guvohning huquqlarini himoya qilmaslik ham dalilning maqbulligiga ta'sir etar ekan. Ushbu norma shuni ko'rsatadiki, guvohning bergan ko'rsatmalariga tomonlardan biri qarshi chiqsa, ushbu ko'rsatmalarning noto'g'riligini isbotlash qarshi chiqqan tomonining majburiyati hisoblanadi. Shu bois, ushbu davlatning mazkur kodeksida, guvohning xavfsizligi ta'minlash maqsadida uning shaxsini oshkor qilish imkoniyati mavjud emasligi, shuningdek undan olingan ko'rsatmalar faqatgina boshqa mavjud dalillar orqali isbotlangandagina jinoyat ishida maqbul dalil sifatida qo'llanilishi mumkinligi belgilangan.

Germaniya Federativ Respublikasida guvohlarni himoya qilishning maxsus mexanizmi mavjud. Federatsiya „Guvohlarni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni (Witness Protection Act)ning IV bo'limida guvohning shaxsiy ma'lumotlarini maxfiy saqlash va ularni oshkor etishni cheklash choralari belgilangan. Ushbu norma guvohning haqiqiy shaxsini oshkor etish xavfini kamaytirish hamda uning hayoti va erkinligiga bo'ladigan tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan. Davlat idoralari va nodavlat

tashkilotlar esa guvoh haqidagi ma'lumotlarni oshkor etmaslik majburiyatini oladi, bu esa guvoh shaxsining ommaga oshkor bo'lishining oldini oladi. Shu bilan birga, ma'lumotlarning sir saqlanishi jarayonida ularning qonuniyligi ustidan Federatsiya prokuraturasi nazoratni amalga oshiradi. Guvohning shaxsi yashirilgan holatda olingan ko'rsatma dalil sifatida baholanishida ayrim murakkabliklar yuzaga keladi. Chunki bunday holatda guvohning ishonchliligi, u ma'lumotni qanday olgani yoki guvohning haqiqatan ham voqelikni shohidi bo'lganligini to'liq tekshirib bo'lmaydi. Shu sababli, anonim guvoh ko'rsatmasi odatda mustaqil dalil sifatida emas, balki boshqa ishonchli dalillar bilan tasdiqlangandagina maqbul hisoblanadi. Natijada, anonim guvohdan olingan ma'lumotlar ko'pincha cheklangan dalil sifatida, yoki faqat boshqa ishonchli dalillar bilan birgalikda haqiqiy hujjatli dalil maqomini oladi.

Buyuk Britaniyada jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha 2008-yilda qabul qilingan "Jinoiy dalillar (anonim guvoh)" aktining "guvohning anonim ko'rsatma berishiga ruxsat (order)" bo'limi mavjud. Mazkur davlat amaliyotida anonim guvohlar uchun beriladigan orderlar ko'pincha guvohning shaxsini himoya qilishni ta'minlashni ko'zlagani bilan, sud qarori jihatidan uning ko'rsatmalarining dalil sifatida maqbulligi asosan guvoh bayonotini mustaqil va ishonchli dalillar bilan tasdiqlash yoki qo'llab-quvvatlash talabiga bog'lanadi. Ya'ni prokuror anonimlik buyrug'ini so'rashdan avval guvoh aytganlarini mustaqil manbalar yordamida boshqa bir ishonchli dalil bilan isbot qilinishini ta'minlashi kerak. Bu talabning mantig'i ikki jihatdan asoslantiriladi. Birinchidan, guvoh anonim bo'lsa, ayblanuvchi yoki uning advokati bu guvohni to'g'ridan to'g'ri so'roqqa tutib, uning so'zlarini sinchiklab tekshira olmaydi. Shu sababli, sud guvohning aytgan gaplariga shunchaki ishonib qolmaydi, ularni boshqa dalillar bilan tekshirish, ya'ni mustaqil isbotlar bilan tasdiqlash kerak bo'ladi. Ana shu narsa guvoh ko'rsatmasining ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, sud adolatli hukm qilish uchun avval anonim guvoh bergan ko'rsatmalarining haqiqatga mosligini, ularning manbai va ma'lumot olish usulining ishonchliligini baholaydi. Mazkur davlat amaliyotida bu talab prokurorning isbot qilish vazifasiga yana qo'shimcha mas'uliyat yuklaydi. Ya'ni, anonim guvohning ko'rsatmasi asosida ish yuritilishi uchun sudga taqdim etiladigan qo'shimcha mustaqil va ishonchli dalillar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar bunday dalillar yetarli bo'lmasa, sud anonim guvohning so'zlarini faqat cheklangan darajada inobatga olishi yoki umuman qabul qilmasligi mumkin. Ba'zan esa sud bunday ko'rsatmalardan ehtiyotkorlik bilan foydalanadi. Shu tariqa, anonim guvoh institutining qo'llanilishi bir vaqtning o'zida dalilning ishonchliligini saqlash va ayblanuvchining adolatli himoya huquqini ta'minlashga xizmat qiladi. Buyuk Britaniyadagi anonim guvoh institutining o'ziga xos xususiyati shundaki, prokuror agar shaxs anonim guvoh sifatida ko'rsatmalar beradigan bo'lsa, ularning manbai va ma'lumot olish usulini tushuntirib berishi kerak bo'ladi.

XULOSA

I. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash chog'ida olingan dalillarning maqbulligi yuzasidan nazariy va ilmiy to'xtam

Jinoyat protsessida guvohlar, jabrlanuvchilar yoki boshqa ishtirokchilarning xavfsizligini ta'minlash — odil sudlovning muhim kafolatlaridan biridir. Shu bilan birga, bu himoya choralari, ayniqsa anonimlikni ta'minlash, dalilning maqbulligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki protsessual qonunlarga ko'ra, har qanday dalil ochiq, tekshiriladigan va taraflar tomonidan e'tiroz bildirilishi mumkin bo'lishi kerak. Shaxsning to'liq shaxsiy ma'lumotlari cheklanganda esa, qarshi tomonining guvohni so'roq qilish yoki uning ishonchliligini sinash imkoniyati kamayadi. Shu sababli, ilmiy nuqtayi nazardan, guvohni himoya

qilish choralari dalilning xususiyatini o'zgartirmasligi, balki faqat xavfsizlikni ta'minlash doirasida qo'llanilishi lozim.

II. Amaliyotdagi muammolar

Amaliyotda anonim yoki maxfiy guvohlarning ko'rsatmalarini dalil sifatida baholashda ikki muhim masala yuzaga chiqadi:

- bunday ko'rsatmalarning ishonchliligi mustaqil dalillar bilan tasdiqlanishi zarur;
- sud adolatli sudlov tamoyillarini buzmasligi lozim.

Shuning uchun sudlar bunday ko'rsatmalarga alohida yondashadi. Agar anonim guvohning so'zlarini tasdiqlovchi qo'shimcha dalillar mavjud bo'lsa va ular dalillar majmui sifatida isbotlansa maqbul hisoblanadi. Bu yondashuv, Germaniya va Buyuk Britaniya tajribasida ham, anonimlikni ta'minlash bilan birga dalilning haqiqatga mosligini isbotlash uchun qo'llaniladi.

III. Umumiy xulosa

Shunday qilib, jinoyat protsessi ishtirokchilarini himoya qilish choralari zarur bo'lsa-da, ularning natijasida olingan dalillar faqat ishonchlilik va haqiqiylik talablari bajarilgandagina maqbul hisoblanishi mumkin. Anonim guvohlarning ko'rsatmalari alohida ehtiyotkorlik bilan baholanishi, ularni tasdiqlovchi ishonchli dalillar mavjud bo'lgan taqdirda asosli deb topiladi. Aks holda, bu turdagi dalillar ayblov uchun yagona asos bo'la olmaydi. Jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash va dalillar maqbulligi o'rtasidagi mutanosiblik saqlanishi — zamonaviy jinoyat protsessining eng muhim ilmiy va amaliy tamoyillaridan biridir.

REFERENCES:

1. Халфина Р.О. Общее учение о правоотношении. М., 1974. С. 123—126.
2. Sh.X.Mamataliyeva JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARI XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASI
3. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2008/15/crossheading/application-of-provisions-etc/enacted>
4. https://sherloc.unodc.org/cld/es/legislation/deu/act_to_harmonize_protection_for_witnesses_getz_zur_harmonisierung_des_schutzes_gefahrdeter_zeugen_zshg/section_1-5/section_1.html
5. https://sherloc.unodc.org/cld/uploads/res/document/mda/criminal-procedure-code_html/Criminal_Procedural_Code_ENG.pdf
6. A.Umarkhanov ENSURING SAFETY OF PARTICIPANTS IN CRIMINAL PROCESSES DURING COURT TRIAL